XALQ DEPUTATLARI SHO‘RCHI TUMANI KENGASHINING QARORI

Sho‘rchi tumani, Mustaqillik ko‘chasi 72-uy. 191500, tel.: (+99876) 457-45-73

2023 - yil 20 - aprel VI-59-56-8-120-K/23 Sho‘rchi tuman hokimligi

Xalq deputatlari Sho‘rchi tuman kengashining 2022 yil 31 dekabrdagi “Surxondaryo viloyati Sho‘rchi tumanining 2023 yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida” gi VI-55-211-8-120-K/22-son qaroriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6, 24-moddalari, Byudjet kodeksining 99,127-moddalari, 2022-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-813-son “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq hamda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2022-yil 30-dekabrdagi 05/21-32/355-sonli xati, Surxondaryo viloyat Moliya Bosh boshqarmasining 2022-yil 31-dekabrdagi 22-04-10/6154-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Sho‘rchi tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining “O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetini tuzish va ijro etish qoidalarini tasdiqlash haqida”gi 2001 yil 29 dekabrdagi 130-son (Adliya vazirligida 2002-yil 14-martda 1111-son bilan ro‘yxatga olingan) qaroriga asosan 2023-yilgi mahalliy budjet parametrlarida belgilangan xarajatlarining rejasiga 184259,0 (bir yuz sakson to‘rt million ikki yuz ellik to‘qqiz) ming so‘m o‘zgartirish kiritilsin.

2. Xalq deputatlari tuman Kengashining 2022-yil 31-dekabrdagi VI-55-211-8-120-K/22-son qaroriga quyidagicha o‘zgartirish kiritilsin:

2-ilovasi I-pozitsiyasi 14-satrdagi “2559623” raqami “2522609” raqami bilan, 22-satrdagi “19264” raqami “56278” raqami bilan, 21-satrdagi “108591576” raqami “108444331” raqami bilan, 26-satrdagi “12624055” raqami “12771300” raqami bilan almashtirilsin.

3. Mazkur qaror “Jarayon” gazetasida rasmiy e’lon qilinsin

hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

4. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

5. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (SH.Bo‘ranov) zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi **G.D.Norboyev**